

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida
“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”
davlat dasturi bo‘yicha **2023-yilning I choragi** yakuni yuzasidan
TAHLILIY MA’LUMOT**

Davlat dasturining **uchinchi ustuvor yo‘nalishi** – **milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o’sish sur’atlarini ta’minalash** bo‘yicha ham tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minalash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish xajmini 1,4 barobar oshirish (**22-maqсад**) maqsadida Navoiydagi Pistali konida 4 million tonna oltin rudasini qayta ishlash majmuasining qurilishini yakunlash (Respublika davlat dasturi 44-band) vazifasi belgilandi.

Dastur ijrosini ta’minalash maqsadida kombinat tomonidan chora-tadbirlar dasturi hamda nazorat rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi (07.03.2023y.), Dasturda “NKMK” AJ berilgan topshiriq doirasida:

Dastur doirasida joriy yil **yanvar-mart** oylarida:

- “NKMK” AJ 6-GMZ uchun kon texnikalari bosqichma-bosqich yetkazib berilmoqda;

- 220kV havo elektr uzatish tarmog‘ining Dehibaland qishlog‘i - “Pistali” koni qismida 147 ta piketda tayanchlar o’rnatildi va 28.1 km sim tortildi;

- Nimstansiyada quvvati 40 MVT bo‘lgan bir dona transformator o’rnatildi va kuch elektr qurilmalari qurilish maydoniga keltirildi;

- 220 kV havo elektr uzatish tarmog‘ining TES-PS “Ximiya”-Dehibaland qishlog‘ida 7 ta piketda tayanchlar o’rnatildi va 94 ta tayanchlar uchun poydevorlar o’rnatildi;

- Qurilish ishlari tarmoq jadvaliga binoan davom ettirilmoqda;

Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni kupaytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish (**22-maqсад**) maqsadida Iqtisodiyotni, shu jumladan sanoatning yetakchi tarmoqlarini yanada liberallashtirish xamda transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish (Respublika Davlat dasturining 79-bandi) vazifasi belgilandi.

Dastur doirasida joriy yil **yanvar-mart** oylarida:

2023-2026-yillarda ustav kapitalida davlat ulushi mavjud transformatsiya qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ESG (Environment, Social, Governance)ni joriy etish, bunda atrof muhit, ijtimoiy omillar va korporativ boshqaruv omillari (ESG omillari), shuningdek, barqaror rivojlanish masalalari bilan bog'lik omillarni hisobga olish masalalarini jamiyatlar boshqaruv organlarida ko'rib chiqilishini tashkillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish. Bunda, xalqaro moliya institutlarini jalb qilgan holda quyidagi korxonalarda ESGni joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.